



O'zbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

hokimligi

maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi

maktabgacha va

maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi

maktabgacha ta'lim tashkiloti

tayyorlov tarbiyachisi

ning

"Ilk qadam" dasturi dasturi uchinchi

nashri

"O'zbekiston Respublikasi tabiiy

boyliklari

mavzusida tashkil etilgan

FAOLIYAT

ISHLANMASI

(Oktabr oyining 4-haftasi)

veb-saytimiz: Zokirjon.com
*Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun
kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.*

Zokirjon Admin bilan
91-328-88-38 nomerga telegram orqali
bog'lanishingiz yoki telegramdan @jek567
izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.
Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida
javob beriladi.

Tayyorlov guruhlariga oktabr oyi 4-hafta faoliyat
ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan
yozing.



Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329
Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik
sharti bilan olishingiz mumkin.
Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin
insoningizga ham.
Internet veb-saytlarga joylamang.
Telegram orqali kanal va gruppalariga
tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT
QILMANG.

Guruh: Maktabga tayyorlov guruhi

Oy mavzusi: "O'zbekiston ne'matlari va boyliklari"

Hafta mavzusi: "O'zbekistonning asosiy tabiiy boyliklari"

Ta'limiy faoliyat maqsadlari:

Ta'limiy: tarbiyalanuvchilardapaxtakorlar mehnati haqida tasavvur uygotish, bu o'simlikdan olinadigan narsalar haqida gapirib berishga imkon yaratish, nutqini rivojlantirish;

Rivojlantiruvchi: bolalar so'z boyligini oshirish, fikrlarini og'zaki nutqda ifodalashga o'rgatish, ona tabiatga qiziqishni uygotish;



Tarbiyaviy: bolalar o'rtasida bir-birlarini hurmat qilishni o'rgatish, fikrlarini tinglashga o'rgatish va jamoa bo'lib o'ynash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: mavzuga oid paxta va choynablag'lar, bolalar soniga mos bo'lgan mo'ljallangan tarqatma kartochkalar, AKT.

Ta'limiy faoliyatning borishi

Tarbiyachi: - Bolajonlar, biz paxtadan nimalar olinishini o'rgatish uchun endi esa paxtaning qanday o'sishi, uni parvarishlashda dehqonlarning mehnatiga e'tibor qilib olamiz.

Monitorga e'tibor qiling, nimani ko'ryapsiz?

Bolalar: - Bu - chigit.

Tarbiyachi: - To'ppa-to'g'ri, chigit - paxtaning urug'i. Uni erta bahorda dehqonlar yerga qadashi bilan u unib chiqadi.

Niholi chopiq qilinadi, sug'oriladi.

(Monitorda jarayon namoyish etiladi.)

Tarbiyachi: - Mana bu esa paxta gulidir. Oq-sariq va och pushti rangdagi bu gullar chanoqqa aylanadi. Chanoq yetilgach, paxta 4-5 ga bo'lingan chanoqlarda lo'ppi bolib ochiladi.



(Monitorda jarayon namoyish etiladi.)

Tarbiyachi: - Dalalarda oppoq bo'lib o'sgan paxta o'simligini paxtakorlar terib oladi- lar. Shuningdek, paxta terish mashinalari yordamida paxta lo'ppini yig'ib olish mumkin. Ayting-chi bolalar, mana bu rasmda paxtakorlar paxta terish jarayonini namoyish qilmoqda.

Bolalar javobi: - Paxta terishyapti.

Tarbiyachi: - Juda to'g'ri, ular paxta terishyapti. Paxta terish faoliyati barcha davlatlarda ham o'savermaydi. Paxtaning vatani issiq mamlakatlarda bo'lgani uchun. Bizning yurtimiz quyoshli bo'lgani uchun paxta o'simligini bobo dehqonlarimiz terib olishadi.

Tarbiyachi: - Endi "Ortiqchasini top" o'yinini o'ynaymiz. Barcha bolalar uchun kartochkalardan paxtaga tegishli bo'lmagan narsalarni topib belgilash kerak. Chigit, olma, mato Paxta, yog', stul Ip, koptok, chigit Mato, sovun, paxta.

Tarbiyachi: - Endi dam olish daqiqasini o'tkazib olamiz:

Shamol esar g'ir-g'ir,

Paxtalar chaman-chaman.

Shamol esa g'ir-g'ir,

Bir-bir terib olaman.

(Matnga mos harakatlar 5-6 marta bajartiriladi.)

Tarbiyachi: - Bolajonlar endi mana bu rasimga qaraymiz va hikoya tuzamiz. **(Rasmda bobo dehqonning paxtani parvarish qilayotgani va paxtakorlar paxtani terib olayotgani tasvirlanadi.)**

1-bola:- Dehqon bobo yerga chigit qadayapti.

2-bola:- Chigitlar unib chiqqanda va uni parvarish qiladi.

3-bola:- Paxta o'sib, gulladi. Uning gullari chanoqqa aynaladi.

4-bola:- Chanoqdagi paxtalar ochilib, dala oppoq bo'lib qoldi.

5-bola:- Paxtakorlar mo'l hosilni yig'ib olishyapti.

6-bola:- Hosil paxta terish mashinasida terib olinyapti.

7-bola:- Paxtalar bir joyga yig'ilib, paxta xirmoni tashkil qilinyapti.

8-bola:- Paxtalardan ip va matolar tayyorlanyapti.

(Siz ham bolalarning gaplari tinglanadi.)

Tarbiyachi: - Bolakalla, zukko bolajonlarim, endi hammaning fikrini bir-lashtirib, yaxlit hikoyatini tuzamiz. Bunda sizlarga yordam beraman.


(Hikoya bolalarni tashvishlarga topishmoq aytiladi.)

Oppoqqina,

Yumshoqqina, (paxta)

Yumshoqqina, ip bo'lar.

Egnimizga ep bo'lar. (paxta)



(Mashg'ulot yakunida bolalardan paxta rasmi namunasi asosida rasm chizish soraladi.)

Oy mavzusi: O'zbekiston ne'matlari va boyliklari

Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi

«Traktor»

Maqsad: lego donachalarini mos ravishda biriktirishga harakat qiladilar, geometrik shakllarning ustma-ust, yonma-yon to'g'ri joylashuviga e'tibor beradilar, o'z xatolarini mustaqil to'g'irlay oladilar, transport turlari haqidagi tushunchalari ortadi.

Kerakli jihoz va materiallar: lego, tayyor rasmlar.

Faoliyatning borishi:

1. Traktor tashvirlangan rasmlarni tomosha qilish.
2. Traktor uchun Kerakli materiallarni tanlash.
3. Amaliyot.
4. Tashvirlash.

Qo'shimcha: bolalarga transport turlari va ularning faoliyatiga qaratilgan ta'limiy o'yinlarni o'tqizish.

E'tiborga: bolalarning qurilish ismlari haqida tushunchani mustahkamlash, konstruksiyani tashvirlashiga ahamiyat beriladi.



Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi

«Modalar uyi» (qog'oz qo'g'irchoqlar uchun ipli matodan ko'ylak tayyorlash)

Maqsad: modelyer va tikuvchilik kasbi haqida tasavvurlari kengayadi. Diqqat, kuzatuvchanlik va fantaziyalari rivojlanadi. O'zi tanlagan matolardan qog'oz qo'g'irchoqqa ko'ylaklar bicha oladi va yopishtiradi.



Kerakli jihoz va materiallar: turli g'irchoqlar, idirg'a ipli matolardan namunalar, tasmalar, qo'g'irchoq kiyimlari andonasi, qo'g'irchoqlar kiygan qo'g'irchoqlar, molBertga yopishtirilgan qog'oz kartondan yasalgan qo'g'irchoqlar.

Faoliyatning borishi:

1. «Qo'g'irchoqni kiyintiramiz» ta'limiy o'yini o'tkazish (yordam berish).
2. O'z ishlari uchun mato va qo'g'irchoq tayyorlash.
3. O'z qo'g'irchoqi uchun libos yaratish.
4. «Yasangan qo'g'irchoqlar» namoyishi.

Qo'shimcha: ko'ylaklar uchun aksessuarlar taklif etish.

E'tiborga molik jihati: mayda qo'l motorikalarining rivojlanishi, o'qishning kayfsizligi asoslariga ahamiyat beriladi.

Til, nutq va savodxonlikka o'rgatish markazi

Terimchilar mehnati (slaydlar)

Maqsad: paxta, g'o'za, paxta tayyor mashinasi tushunchalari kengaytirish, kasbiy hikoya

tuzish malakalari ortadi. Lug'at bo'Ylariga «xirmon», «etak» kabi so'zlar qo'shiladi.

Kerakli jihoz va materiallar: mavzu yuzasidan rasmlar, slaydlar, AKT.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzu bo'yicha slaydlar, rasmlar ko'rish.

2. Mavzuga doyr she'r o'qish (tarbiyachi yordamida).
3. Slaydlar asosida hikoyalar tuzish.
4. Savol-javoblar.

Qo'shimcha: «Men paxta dalasiga bordim» mavzusida ijodiy hikoya tuzishni taklif etish.

E'tiborga molik jihati: nutqni, kuzatuvchanlikni rivojlantirish.



Fan va tabiat markazi

«Chigitdan yog' olish» tajriba markazi

Maqsad: paxta va undan foydalanishni o'rganish, qo'shimcha bilim va tasavvurga ega bo'ladilar. Kerakli jihoz va materiallar: paxta, o'simlik yog'i, o'simlik paxta, paxta mavzusiga oid rasmlar, chigit, salfetaklar, yong'oq, qo'qon, plakatlari.

Faoliyatning borishi:

1. Haqiqiy chigitli paxtani kuzatish.
2. Paxtadan chigitlarini ajratish.
3. Paxtaning chigitlarini jo'va bilan ezish va yog' chiqarish.
4. O'simlik yog'i, paxta chigitidan, kungaboqardan, zig'iridan, qo'qondan yog'larni kuzatish.

Qo'shimcha: konvert ichidan olingan mavzuga oid paxtadan olingan yog'larga ta'rif berishni tavsiya etish.

E'tiborga molik jihati: bolalarning kuzatuvchanligi, tahlil va xulosa qilish, xavfsizligi qoidalariga amal qilishiga ahamiyat beriladi.

San'at markazi

Applikatsiya: «Chanoqdagi paxta»

Maqsad: paxta ko‘rinishini tasvirlab berishni, qaychi bilan ishlash malakalari ortadi, mayda qo‘l motorikalari rivojlanadi, ijodiy fikrlashga o‘rganadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: gazeta, xamirli yelim, oq qog‘oz, pape-mashening asosi uchun yumaloq va yarim dumaloq predmetlar, mo‘yqalam, rangli qog‘oz, paxta.

Faoliyatning borishi:

1. Haqiqiy paxtaga qarab uni o‘rganib chiqish.
2. Pape-mashe usulida paxta yasash sxemasini tuzish.
3. Paxtaning chanoq qismini yaratish.
4. So‘ng asosiy qismiga o‘tish.
5. Tayyor ishlarni kuzatish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: bolalar ish yakunida foydalanish uchun bargchalar tayyorlash va o‘z ishlari bilan qo‘shib kompozitsiya yaratish taklif etiladi.

E‘tiborga molik ixti: batartiblik va ehtiyotkorligiga, ish joyini tozalashga va mustqil ishlashiga ahamiyat beriladi.

